

## QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINING HAYOTIY BOSQICHLARI VA ULARNI BAHOLASHDA STATISTIK USULLARNI QO‘LLASH

Shertaylaqov G‘ayrat Muradovich

Jizzax politexnika instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

<https://orcid.org/0000-0003-2994-7866>

**Annotatsiya.** Ushbu qishloq xo‘jalik mahsulotlarining va ekin maydonlarining samaradorligini hisoblashda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini baholashda statistik usullardan o‘zaro bog‘langan indekslar yordamida ya‘ni, hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni, natijaviy belgilarning umumiy o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillar kuchini tahlil qilishdan iborat. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifatini tahlili qilishda ijtimoiy-iqtisodiy islohat natijalari va sifatni statistik boshqarish istiqboliga ta‘siri masalalari o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jalik, mahsulot, sifat, natijaviylik, samaradorlik, statistik, usul, boshqarish, ishlatish, xarid, ehtiyoj, nazorat, jarayon, tizim, tadqiqot, loyihalash, menejment, hayotiy davri.

**Аннотация.** Этот расчет эффективности сельско хозяйственной продукции и пахотных земель предполагает использование статистических методов при оценке сельскохозяйственной продукции с применением коррелированных индексов, то есть анализ взаимосвязи между событиями и силой факторов, влияющих на общее изменение результирующих характеристик. При анализе качества сельскохозяйственной продукции изучаются результаты социально-экономических реформ и их влияние на перспективы статистического управления качеством.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, продукт, качество, эффективность, результативность, статистика, метод, управление, использование, закупки, спрос, контроль, процесс, система, исследования, проектирование, управление, жизненный цикл.

**Abstract.** This the calculation of the efficiency of agricultural products and arable land involves the use of statistical methods in the evaluation of agricultural products using correlated indices, that is, analyzing the relationship between events and the strength of factors affecting the overall change in the resulting characteristics. When analyzing the quality of agricultural products, the results of socio-economic reforms and their impact on the prospects for statistical quality management are studied.

**Keywords:** agriculture, product, quality, efficiency, effectiveness, statistics, method, management, use, procurement, demand, control, process, system, research, design, administration, life cycle.

**Kirish.** Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifatini boshqarishda statistik usullarni qo‘llash sifatni ta‘minlash bilan bir qatorda texnologik jarayonlarni tahlil qilish, ma‘lumotlarni qayta ishlash va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifatini oshirish muhim o‘rin tutadi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqishda statistik boshqarish asosida iqtisodiy samaradorlikka erishish va unga sarflanadigan harajatlarni kamaytirishning tashkiliy masalalarini yoritib berishdan iborat [1].

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarni yaratish, ishlatish yoki iste‘mol qilish davrida ularning sifat ko‘rsatkichini aniqlash, sifatini ta‘minlash va yetarli darajada saqlash yuzasidan ko‘riladigan tadbirlar majmuyi sifatini boshqarish jarayonini tashkil qiladi. Shuning uchun ham qishloq xo‘jalik mahsulotlarining umumiy hayotiy davrini quyidagi to‘rt bosqichdan iborat deb qarash maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

1. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tadqiqot qilish va loyihalash.
2. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tyorlash.
3. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini muomolaga chiqarish va sotish.
4. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlatish (iste‘mol qilish) bosqichlariga ajratish lozim.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlashda va ishlatishda sifat ko‘rsatkichlarga xom-ashyo, mahsulotlar, sarf bo‘ladigan yoqilg‘i quvvati solishtirma sarflanishi (sifat ko‘rsatkichining asosiy o‘lchovi) va moddiy resurslardan foydalanish koeffitsientini bilish muhim masalalar bo‘lib hisoblanadi [2].

**Natijalar va munozara.** Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarx indeksi (Is) ni ishlab chiqarilgan mahsulotning tabiiy hajmi indeksi

(Iq) ga ko‘paytirish natijasida ishlab chiqarish xarajatlari indeksi (Iqs) kelib chiqadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari baho indeksi (Ip)ni sotilgan mahsulotlarning tabiiy hajmi indeksi (Iq) ga ko‘paytirish natijasida sotilgan mahsulot qiymati (Iqp) indeksi kelib chiqadi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga sarf qilingan mehnat umumdorligi indeksi (It) ni sarf qilingan mehnat miqdori indeksi (IT) ga ko‘paytirish natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy miqdor indeksi (Ia) kelib chiqadi [3].

$$I_p \times I_q = I_{qp} \quad (1)$$

$$\frac{\sum p_1 \cdot q_1}{\sum q_0 \cdot p_1} = \frac{\sum p_0 \cdot q_1}{\sum q_0 \cdot p_0} = \frac{\sum q_1 \cdot p_1}{\sum q_0 \cdot p_0} \quad (2)$$

1. Berilgan fomular yordamida quyidagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga doir misollarni ko‘rish mumkin bo‘ladi. Joriy davrda bazis davrga nisbatan paxta hosildorligi 5% ga oshgan bo‘lib, ekin maydoni esa 3 % ga kamaygan bo‘lsa, yalpi hosil hajmi qanchaga o‘zgaradi? Yechimi:

$$1,05 \times 0,97 = 1,018 \text{ yoki } 101,8\%$$

Ushbu masalani yechimi natijasida yalpi hosil hajmi 1,8 % ga oshgan bo‘ladi.

2. Jamoa xo‘jaligi bozorlarida kartoshkaning o‘rtacha bahosi joriy davrda bazis davrga nisbatan 22 % ga oshgan bo‘lib, tuzilmadagi siljishlar natijasida kartoshkaning o‘rtacha bahosi 12 % ga pasaygan bo‘lsin u holda bahoning doimiy tarkibiy indeksi qanchaga o‘zgaragan bo‘ladi?

$$\text{Yechimi: } 1,22 \times 0,88 = 1.074 \text{ yoki } 107.4\%$$

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Xavf tahlili	Qishloq xo’jalik mahsuloti yoki jarayonlarda yuzaga keladigan ma’lumotni aniqlash, baholash va ularni nazorat qilish bosqichi.	Bu qishloq xo’jalik xavfsizligi jarayonidagi eng muhim va asosiy qadamlardan hisoblayman.
Monitoring	Qishloq xo’jalik mahsulotining belgilangan mezonlarga muvofiq ishlashini kuzatib borish va nazorat qilishdan iborat.	Monitoring – bu tizim ishlayaptimi yoki yo’qligini ko’rsatuvchi doimiy nazorat vositasi hisoblanadi.
Tuzatish choralari	Aniqlangan og’ishlar yuzasidan xavfsizlikni tiklash uchun bajariladigan chora-tadbirlar.	Bu har qanday xatolikni to’g’rilash emas, balki xavfli vaziyatni zudlik bilan bartaraf etish mexanizmidir.

Ushbu masalani yechimi natijasida bahoning doimiy tarkibiy indeksi 7,4 % ga oshgan bo’ladi.

Ushbu mavzuga **“Tushunchalar tahlili”** metodikasini qo’llash: Bu mavzu bo’yicha tayanch tushunchalarni o’zlashtirish darajasini aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash va dastlabki bilimlar darajasini tahlil qilish maqsadida qo’llaniladi va tushunchalar tahlili 1-jadvalda berilgan.

**Xulosa.** Qishloq xo’jalik mahsulotlarini yetishtirishda uning

sifat ko’rsatkichga erishishda qishloq xo’jalikda ishlaydigan ishchi gurular uchun juda katta tajribaviy ishlarni bajarish talab qilinadi. Shuning uchun statistik ma’lumotlarni, analiz qilish usullarini va ma’lumotlarini ishlab chiqish, ya’ni yo’l qo’yilgan nuqsonlarini yo’qotish uchun turli anjumanlarni kam harajat qilib tashkil etish lozim bo’ladi. Qishloq xo’jalik mahsulotlarini sifatni boshqarishning usullari haqida ma’lumotlar berilgan va amaliy qismlarga ham e’tibor berilgan.

### ADABIYOTLAR

1. A. Salimov. Mahsulotlar sifatini aniqlash va sertifikatlash. Darslik. Toshkent.2019.210 b.
2. F.A.Rahmonov. Mahsulot sifati nazorati. Darslik. Jizzax. 2023.130 b.
3. G’.M.Sheraylaqov. Mahsulot sifati va sifatni boshqarishning statistik usullari. O’quv qo’llanma. Jizzax. 2025.115 b.